

Professional hamjamiyat, biznes va DSQ Jamoatchilik kengashi a'zolari ishtirokida uchrashuv

2022-yil 27-yanvar kuni Davlat soliq qo'mitasida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi mutaxassislari, Davlat soliq qo'mitasi Jamoatchilik kengashi a'zolari, soliq maslahatchilari, buxgalterlar va auditorlar ishtirokida uchrashuv tashkil etildi.

Yig'ilish avvalida davlat soliq xizmati organlari va biznes hamjamiyat o'rtasida aloqalarning yetarli emasligi hamda zarur ma'lumotlar to'liq almashilmayotgani soliq to'lovchilarning soliq ma'muriyatchiligining raqamli transformatsiyasi va soliqqa tortish sohasidagi o'zgarishlarni noto'g'ri tushinishlariga sabab bo'layotgani ta'kidlandi.

Jamoatchilik fikrini o'rganish natijalariga ko'ra, fikr-mulohazalarni operativ tarzda olish maqsadida ixtisoslashgan mutaxassislar, auditor va soliq maslahatchilari, tadbirkorlik subyektlari va OAV vakillari ishtirokida muntazam ravishda mavzuga oid suhbatlar o'tkazishga qaror qilindi.

Davra suhbatlari ishtirokchilari yangi o'zgarishlar bilan tanishtirildi

Tadbir davomida soliq to'lovchilarga avtomatlashtirilgan tizimlar va xizmatlardan foydalanish tartibiga kiritilgan o'zgartirishlar haqida ma'lumot berildi.



Xususan, "E-aktiv" avtomatlashtirilgan axborot tizimidan foydalanish ixtiyoriy bo'lishi aytiladi. 2022-yil 1-apreldan «E-aktiv» dasturida faqat 4 toifadagi tovarlar – sement, shisha, yog'och va paxta bo'yicha operatsiyalar aks ettiriladi.

Boshqa mahsulot guruhlarini hisobga olish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi – har chorakda bir nechta mahsulotlar bo‘yicha. “E-aktiv” tizimi “tovarsiz” operatsiyalarning oldini olishga xizmat qilishi ham ta’kidlandi.

Davlat soliq xizmati organlari bu borada biznes, jamoatchilik va OAV vakillari bilan faol hamkorlik qilib, konstruktiv muloqot olib borishga tayyor.

“E-aktiv” AATdan foydalanmaganlik hamda tovarga (xizmat) mos kelmaydigan mahsulot va xizmat indentifikatsiya kodlari (MXIK)ni noto‘g‘ri ko‘rsatganlik uchun javobgarlik choralarini qo‘llamaslik 2022-yil 1-sentabrga qadar uzaytirildi.

Shuningdek, mahsulot va xizmatlar uchun kodlarni biriktirish bo‘yicha ishlar davom ettirilishi ta’kidlandi. Agar tovarlar va xizmatlar tasniflamasa va identifikatsiya qilinmasa, unda bozorni kuzatish va tahlil qilish jarayonlari, shuningdek rivojlanish darajasini va zarur mahsulotlar bilan to‘yinganligini samarali baholash murakkablashadi.

Faqat qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) to‘lovchilariga taalluqli xavflarni tahlil qilishning avtomatlashtirilgan tizimiga alohida e’tibor qaratildi. Mazkur tizim 2021-yilning sentabr oyida test rejimida joriy qilingan. Avtomatlashtirilgan tizim yordamida soliq to‘lovchilar Vazirlar Mahkamasining 595-son qarori kuchga kiringunga qadar 3 oy davomida 18 ta mezon bo‘yicha xavf omillarini bartaraf etishlari mumkin edi.

2023-yil 1-yanvarga qadar soliq xavfi darajalarining quyidagi mezonlarini qo‘llash to‘xtatilgani ma’lum qilindi.

Soliq xavfining yuqori darajasi bo‘yicha uchta mezon:

– rahbar shaxsining yoki moliyaviy boshqaruv vazifalarini amalga oshirayotgan shaxsning YaMMT da tasdiqlanmaganligi;

– o‘z ko‘chmas mulki, ijaraga olingan yoki tekin foydalanilayotgan ko‘chmas mulki yo‘qligi;

– soliq to‘lovchining manzili nominal joylashgan joy manzili bilan to‘g‘ri kelishi (18 kvadrat metrdan kam);

Soliq xavfining o‘rta darajasi bo‘yicha ikkita mezon:

– oxirgi o‘n ikki oy ichida soliq hisobotlarini o‘z vaqtida taqdim etmaslik holatlari mavjudligi;

– yollanma ishchilari yo‘qligi yoki 4 nafardan kamligi.

Soliq xavfi mezonlarining yuqorida keltirilgan 3 ta yuqori darajasi aniqlanganda, QQS guvohnomasining amal qilish muddati to‘xtatilmaydi. Shuningdek, qayd etilgan soliq xavfining 2 ta o‘rta darajasi ham soliq nazorati o‘tkazish uchun asos bo‘lmaydi.

Ushbu mezonlarni to‘xtatib turish yirik soliq to‘lovchilar va QQS to‘lovchi sifatida yangi ro‘yxatdan o‘tganlarga nisbatan qo‘llanilmaydi.

Muhokama chog'ida 69 ming soliq to'lovchi yuridik shaxsdan 21 mingtasi ko'chmas mulk qiymatini haqqoniy aks ettirayotgani va muntazam ravishda soliq to'lab kelayotgani ta'kidlandi. Soliq solish maqsadlarida 1 kv.m uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatlarning joriy etilishi bozorning barcha ishtirokchilari uchun teng sharoitlar yaratish uchun zarur chora hisoblanadi.

Butun respublika miqyosida soliq yukining keskin oshishiga yo'l qo'yimaslik maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va xalq deputatlari viloyatlar Kengashlari tomonidan kamaytiruvchi koeffitsiyentlar keng qo'llaniladi.

Yagona mol-mulk majmuining bir qismi hisoblangan holda (mustaqil) turuvchi bino yoki inshootlarda alohida baholash o'tkazish mumkin.

Bundan tashqari, 1 kv.m. uchun minimal qiymat suv haydash minoralari, rezervuarlar, soyabonlar, beton maydonchalar va devorlar (bordiyurlar) hamda boshqa shunga o'xshash obyektlarga tatbiq etilmaydi.

Soliq to'lovchi tomonidan 2020-2021 yillarda o'tkazilgan mustaqil baholash natijalari soliq bazasini aniqlash uchun qabul qilinadi.



Biznes hamjamiyat bilan konstruktiv muloqot

O'zbekiston buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi vakilasi, DSQ Jamoatchilik kengashi a'zosi Svetlana Golosova soliq zanjiri uzilishlarini qo'llashni "to'xtatib turish" va zaruriy takomillashtirishlar bo'yicha o'z fikrlarini bildirdi.



Mutaxassislarning ta'kidlashicha, shu vaqtgacha soliq to'lovchining kontragentini baholash mexanizmi mavjud bo'lmagan. Hozirgi vaqtda soliq uzilishlari zanjiri faqat informatsion xarakterga ega va u soliq javobgarligi choralarini ko'rish va QQSni qoplashda hisobga olinmaydi. Kelib tushayotgan murojaatlarni inobatga olgan holda, uzilish koeffitsiyentini aniqlash formulasiga soliq imtiyozlari berish nuqtai nazaridan o'zgartirishlar kiritiladi.

Soliq uzilishi koeffitsiyenti ham QQS to'lovchining tahlila-tahlil tizimi bilan o'zaro bog'liq emas.

Elektron hujjat aylanishi operatori vakili Asqar Ismoilov MXIKni joriy etish bo'yicha rouming operatorlari bilan operativ hamkorlikni tashkil etish tashabbusi bilan chiqdi. Davlat soliq qo'mitasining tegishli boshqarmalari rahbarlariga amaliy yordam ko'rsatish uchun mutaxassislarni aniqlash topshirildi.



Buxgalteriya hisobi bo'yicha konsalting kompaniyasi asoschisi Natalya Turalinova "E-aktiv" tizimida faqat miqdoriy hisoblarni yuritish va tovarlarning pul qiymatidan voz kechish taklifi bilan chiqdi. Shuningdek, u joriy etilgan axborot tizimlaridan foydalanishda ish jarayonlarini to'g'ri tashkil etish orqali qiyinchiliklarning oldini olish mumkinligini ta'kidladi.



Soliq maslahatchisi Nargiza Boltaxo'jayeva "E-ijara" xizmatida xorijiy fuqarolar – jismoniy shaxslar bilan tuzilgan ijara shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish va doimiy muassasa orqali faoliyat yuritmaydigan norezidentlarning mol-mulk solig'i hisobini taqdim etish masalalarini ko'tardi.



Mas'ul shaxslarga JShShIR kiritilgandan so'ng valyuta tanlash imkoniyatini texnik topshiriqlarga kiritish va zarur ma'lumotlarni aks ettirish bilan bog'liq kamchiliklarni bartaraf etish topshirildi. Shuningdek, yaqin kelajakda ijara haqini

bazaviy hisoblash miqdori (BHM) asosida avtomatik ravishda hisoblash algoritmini ishlab chiqishga qaror qilindi.



Renta solig‘i bo‘yicha batafsil tushuntirish va ko‘rsatmalar tayyorlash taklif etildi.

Tadbir yakuni bo‘yicha DSQ tuzilmalari rahbarlariga tegishli topshiriqlar berildi.